

## DAVLATIMIZ TOMONIDAN BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING HISOBINI YURITISH VA SAMARADORLIGINI TAKOMILASHTIRISH YO‘LLARI

*Muzaffarov Dilshod Shuxratovich*  
Sog‘liqni saqlash vaziriligi xodimi

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlarni ishlab chiqish, berilayotgan imtiyozlar va preferensiyalarning samaradorligini baholashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021-yil 20-avgustdagi Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqida “Halol tadbirkor, intizomli soliq to‘lovchilar safini kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib, bu – yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashning eng maqbul yo‘lidir. Ma’lumki, so‘nggi uch yilda soliqlar turi 16 tadan 9 taga qisqardi. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarga mazkur yig‘imlarni bekor qilish hisobidan 7 mingga yaqin korxonalar har yili o‘rtacha 6 trillion so‘m soliq to‘lashdan ozod bo‘ldi.

**Kalit so‘zlar:** byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq imtiyozlari, soliq ma‘murchiligi, tadbirkorlik sub‘ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

### Issues of accounting and analysis of the effectiveness of tax benefits provided by our government

**Annotation:** Particular attention is paid to the development of clear criteria and mechanisms for the provision of benefits in the Republic of Uzbekistan, the assessment of the effectiveness of the benefits and preferences. In his speech at the meeting with entrepreneurs of Uzbekistan on August 20, 2021, President of the Republic of Uzbekistan Sh.M.Mirziyoev said: “Expanding the ranks of honest entrepreneurs, disciplined taxpayers is an urgent task, which is the best way to combat the shadow economy. It is known that in the last three years the type of taxes has been reduced from 16 to 9. Due to the abolition of these fees to extra-budgetary funds, about 7,000 enterprises are exempt from paying an average of 6 trillion soums a year in taxes.

**Keywords:** budget policy, crisis, budget, tax benefits, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxes, tax rates, preferences.

#### **Kirish.**

Soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha ta‘sirchan tizimni joriy etish orqali imtiyozlarning soliq to‘lovchining moliyaviy faoliyatiga ta‘sirini tahlil qilish hamda samarasiz va maqsadsiz berilgan soliq hamda bojxona

imtiyozlarini bekor qilish bo'yicha bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar tasdiqlanishi, shu jumladan Soliq kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kirilmoqda. Soliq imtiyozlarini hisobga olish bo'yicha maxsus ma'lumot bazalarida, shuningdek, ularni qo'llayotgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning sifatini tahlil va nazorat qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

## **2. Adabiyotlar sharxi.**

Mavzu doirasida asosiy o'rganiluvchi iqtisodiy kategoriya soliq imtiyozlari tushunchasi bo'lib, soliq imtiyozlariga nisbatan berilgan ta'riflarga batafsil to'xtalsak. Nezamaykin va Yurzinovalar (2004) —soliq imtiyozi – boshqa to'lovchilarga nisbatan soliq to'lovchilarga soliq to'lovchilarning alohida toifalariga soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan afzalliklarning, jumladan, soliq yoki yig'imini to'lamaslik yoki kichikroq hajmda to'lash imkoniyatining berilishi deydi.

Mayburov (2011) soliq imtiyozlarini qonun xujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ular bir nechta shakllarga ajratiladi: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq ta'tili.

Milyakova (2008) —soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning alohida toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan taqqoslaganda afzalliklar taqdim etish, jumladan soliq yoki yig'imni to'lamaslik yoki ularni ozroq miqdorda to'lash imkoniyati.

Raxmatullaeva (2016) soliq imtiyoziga kategoriya sifatida quyidagicha ta'rif bergan: —imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir.

Zavalishina (2005) Soliq imtiyozi – deganda soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan qiyoslaganda soliqlar to'g'risidagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar berilishi, shu jumladan soliq(yig'im) to'lamaslik yohud kam hajmda to'lash imkoniyati tushiniladi.

Jo'raev va boshqalar (2009) soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin.

Baladina (2011) bu borada quyidagicha ta'rif bergan: soliq preferensiyasi – davlat tomonidan soliq majburiyatini kamaytirish yuzasidan ayrim soliq to'lovchilar uchun majburiy tartibda, bajarilishi lozim bo'lgan taqdim qilinadigan ustuvorliklar.

## **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

#### **4. Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasiga asosan, soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo‘lishi mumkin emas. Ayrim soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig‘i va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar soliq solishdan bo‘shagan mablag‘larni aniq maqsadlarga yo‘naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag‘lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag‘lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo‘shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag‘lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag‘lar byudjetga o‘tkazilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentyabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-son qarori bilan Davlat soliq qo‘mitasining boshqaruv xodimlari shtatining umumiy cheklangan soni doirasida qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilishida soliq xavfini tahlil qiluvchi hamda soliq imtiyozlari hisobini yurituvchi alohida maxsus tarkibiy bo‘linmalar tashkil etildi. Bundan tashqari mavjud soliq imtiyozlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish va har bir soliq imtiyozi uchun alohida soliq imtiyozi unikal kodini (ID-raqamini) berish tartibini joriy etish hamda soliq imtiyozlari kodlari to‘g‘risidagi axborotlarni soliq to‘lovchilarning shaxsiy kabinetiga yetkazib berish amaliyotini joriy etish vazifasi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasida soliqlar bo‘yicha imtiyozlar O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi asosida taqdim etilib kelinmoqda. Soliq imtiyozlar hisobini yuritish maqsadida “E-imtiyoz” avtomatlashtirilgan axborot tizimi amaliyotga joriy etiladi. Dastur yordamida soliq to‘lovchilarga taqdim etilgan imtiyozlardan to‘g‘ri foydalanishini nazorat qilish, biznesda sog‘lom raqobat muhitini yaratish, imtiyozdan foydalanish yuzasidan xabardor qilish interaktiv xizmatini joriy etish orqali tovar va xizmatlar hamda korxonalariga imtiyozlarni bog‘lash mexanizmi yaratilmoqda.

Soliq to'lovchilarga realizasiya qilinayotgan tovar va xizmatlarga hamda ob'ektlarga (ko'chmas mulk va yer uchastkasi) imtiyozlarni qo'llash yoki rad etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda imtiyozdan foydalanish yuzasidan xabardor qilish interaktiv xizmati orqali kelib tushgan murojaatlar saralanadi.

Ikkinchi bosqichda Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish departamenti tomonidan imtiyozni qo'llash bo'yicha murojaatlarni kategoriyalarga ajratiladi va bir ish kuni ichida ko'rib chiqib, ichki idoroviy hujjat (EDO tizimi) orqali xulosa berish uchun yuboriladi.

Uchinchi bosqichda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish departamenti (Soliq turiga mas'ul boshqarma va bo'limlar) tomonidan mazkur tizimlar bilan birgalikda xulosa tayyorlanib, imzolanadi.

To'rtinchi bosqichda imtiyoz qo'llanilishi yuzasidan xulosa qilingan hollarda avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi. Imtiyoz qo'llanilishi rad etilgan hollarda xulosa olingan kunning o'zida soliq to'lovchiga asoslantirilgan xabar yuboriladi.

Soliq imtiyozlaridan foydalanish to'g'risida yuborilgan ma'lumotlarni o'rganib chiqish bo'yicha Ishchi guruh tarkibi tasdiqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi Ishchi guruhning xulosasiga asosan amalga oshirilishi belgilab qo'yiladi. DSQning Axborot - kommunikasiya texnologiyalari departamenti "Imtiyozdan foydalanish yuzasidan xabardor qilish" interaktiv xizmati amaliyotga joriy etilishini ta'minlashi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, Davlat soliq qo'mitasining yangi tuzilma ya'ni "Soliq imtiyozlarini xisobini yuritish va tahlil qilish" bo'limi tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llay olish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobini yuritish bo'yicha ma'lumotlar "E-imtiyoz" axborot tizimida shakllantiriladi va har bir soliq imtiyozi uchun alohida soliq imtiyozi unikal kodini (ID-raqami) berishi zarur bo'ladi. Mazkur axborot bazasi barcha foydalanuvchilarga soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tez (bitta STIR va boshqa) shakllantirib olish va nazorat qilish imkoniyatini yaratiladi. "Soliq imtiyozlarini xisobini yuritish va tahlil qilish" bo'limi tomonidan qo'llanilgan imtiyozlar tahlil qilib boriladi. Taxlilda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan hisobot davri davomida qo'llanilgan imtiyozlar soni summasi aniqlashnadi. Yuridik va jismoniy shaxslarning soliq imtiyozlarini qo'llash tartibini buzish holatlari bilan bog'liq bo'lgan tahliliy ma'lumotlarni shakllantiriladi va Qo'mita markaziy apparati tarkibiy tuzilmasining mas'ul tuzilmalariga taqdim etilishi kerak. Qo'mita markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari bilan soliq imtiyozlari ma'muriyatchiligi masalalari yuzasidan o'zaro Moliya vazirligi, Bojxona qo'mitasi bilan hamkorlik va axborot almashishni yo'lga qo'yish kerak. Soliq imtiyozlari qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan soliq nazoratini o'tkazish maqsadlarida soliq

to'lovchilarni xavf guruhlariga kiritish mezonlarini shakllantiradi va mas'ul tuzilmalariga taqdim etilishini ta'minlashi kerak.

Bundan tashqari, Mamlakatimizda chet el investitsiyalarini keng jalb qilgan holda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish, zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish hamda yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktyabrdagi "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantirish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6319-son Farmoni tasdiqlandi. Mazkur Farmon bilan, 2022-yil 1-yanvardan boshlab muhim tijorat salohiyatiga ega bo'lgan uglevodorodlar, qimmatbaho, rangli, nodir va radioaktiv metallar va boshqa turdagi rudali foydali qazilmalar ob'ektlari bo'yicha geologik o'rganish yoki avval o'rganilgan yer qa'ri uchastkasida qazish ishlari uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini tanlov savdolariga chiqarishning maxsus tartibi o'rnatiladi. Bunda sotuv summasi yer qa'ridan foydalanish huquqi uchun bonus summasi sifatida qaraladi va tanlov savdolari tashkilotchilarining xarajatlarini chegirgan holda respublika byudjetiga o'tkaziladi. Bundan tashqari, tanlov savdolari tashkilotchisi yoki tanlov savdolari ishtirokchilari qonunchilikda belgilangan tartibda foydali qazilmalarni qazib olishda (ajratib olishda) ayrim soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarini oshirilgan miqdorda taklif qilish huquqiga ega bo'ldilar.

Xususan, Rossiya Federatsiyasida rentaga soliq solish usullaridan biri foydali qazilmalarni qazib chiqarish hududini tavsiflovchi koeffitsientni (Ktd), neft qazib olishning murakkablik darajasini tavsiflovchi koeffitsientni (Kd) va tugash darajasini tavsiflovchi koeffitsientni kiritishdir. Tabiiy resursni iqtisodiy baholashga ijara yondashuvining mohiyati shundaki, uning qiymati ushbu resurs keltiradigan differensial rentaning hajmi bilan belgilanadi.

Differensial renta taxmin qilinadigan resursning yanada qulay tabiiy xususiyatlari (sifatli, qulay joylashuv va boshqalar) tufayli milliy iqtisodiyot oladigan iqtisodiy yutuqlarni ko'rsatadi. Differensial rentani aniqlash resurslarning xususiyatlaridagi hududiy farqlarning ijtimoiy mehnat unumdorligiga ta'sirini hisobga olishga imkon beradi.

Yuqoridagilarini inobatga olgan holda, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

#### ***Xulosa va takliflar.***

Soliq kodeksining 75-moddasiga Soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlari va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodidan foydalangan holda amalga oshirilishini kiritish kerak.

Soliq kodeksining 243-moddasigi o'zgartirish kiritish kerak. Chunki byudjet mablag'lari hisobidan saqlanadigan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xizmatlaridan foydalanuvchi aholining keng qismini ijtimoiy qo'llash maqsadida, faqat ushbu toifadagi to'lovchilar uchun soliq bo'yicha imtiyozlarni saqlab qolish taklif etilmoqda.

*Adabiyotlar ro'yxati*

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 2021 yil 20 avgust. – <https://president.uz/uz/lists/view/4551>
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
3. Ma'ruza (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 26 mart kuni koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasi// Toshkent.  
2020 yil, 26 mart.
4. Aleksandrov I. M. (2009) Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik / I. M. Aleksandrov. — 10-ye izd., pererab. i dop. — M.: Izdatelsko- trgovaya korporatsiya «Dashkov i K, 228 s.
5. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. (2009) Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. T.: NORMA. 184- bet.
6. Baladina A.S. (2011) Analiz teoreticheskix aspektov nalogovyx lgot i nalogovyx preferensiy // Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta- №4(16)- S. 45-60.
7. Nezamaykin V.N., Yurzinova I.L. (2004) Nalogooblajenie yuridicheskix i fizicheskix lis. –M.: Ekzamen, S.44.